

Yoshlar va mahalla faollari bilan uchrashuv o'tkazildi

// 17.09.2024

<https://uzkiyosanoat.uz/oz/press/news/yoshlar-va-mahalla-faollari-bilan-uchrashuv-o-tkazildi>



Bugun O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 1-fevraldagi "O'zbekiston-2030" strategiyasini "Yoshlar va biznesni qo'llab-quvvatlash yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida"gi farmonida ko'rsatilgan vazifalar ijrosini ta'minlash va mahallalarda yoshlar bilan ishlash masalalarini muvofiqlashtirish bo'yicha maxsus ishchi guruhi tomonidan "O'zkiyosanoat" Ajga birlashtirilgan og'ir toifadagi yoshlar va mahalla faollari bilan uchrashuv o'tkazildi.

Uchrashuvda Parkent tumanining "Kungay", "Nurobod", "O'choq", "Soy" va "Teman" mahallalari raislari, yoshlar yetakchilari, profilaktika inspektorlari, hokim yordamchisi, xotin-qizlar faollari ishtirok etishdi.

Unda ajrim yoqasida bo'lgan yosh oilalarni yarashtirish, 26 nafar yoshni og'ir toifadan chiqarish masalalari ko'rib chiqildi.





"O'zkimyosanoat" AJ Matbuot xizmati